

**NAVOIY VILOYATINING TA'LIM ISLOHOTLARI**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi*

**Gafurova Dilobar Karamatovna**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Sagidullayeva Juldizay Toybek qizi**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Navoiy viloyatining umum ta'lim muassasalari, o'quvchilar va pedagog hodimlar sonining ko'rsatkichlari taqsimlangan hamda viloyatning ta'lim islohatlari ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *muassasalar, o'quvchilar, o'qituvchilar, ta'lim islohotlari.*

**Аннотация:** *В статье анализируются показатели численности общеобразовательных учреждений, учащихся и педагогических кадров в Навоийской области, а также анализируются образовательные реформы в регионе.*

**Ключевые слова:** *учреждения, учащиеся, учителя, образовательные реформы.*

**Abstract:** *This article analyzes the population of general education institutions, students, and teaching staff in the Navoi region, as well as educational reforms in the region.*

**Keywords:** *institutions, students, teachers, educational reforms.*

**Navoiy viloyati bo'yicha umumta'lim muassasalar' o'quvchilar va pedagog xodimlar soni bo'yicha taqsimlanishi. (2024-2025- o'quv yili boshiga)**

|                        | <b>Muassasalar soni,birlikda</b> | <b>O'quvchilar soni, kishida</b> | <b>O'qituvchilar soni (o'rindoshlarsiz), kishida</b> |
|------------------------|----------------------------------|----------------------------------|------------------------------------------------------|
| <b>Navoiy viloyati</b> | 384                              | 194687                           | 21915                                                |
| <b>Navoiy sh</b>       | 29                               | 41883                            | 3536                                                 |
| <b>Zarafshon sh</b>    | 13                               | 18899                            | 1790                                                 |
| <b>G'ozg'on sh</b>     | 4                                | 1551                             | 178                                                  |
| <b>Karmana t</b>       | 35                               | 23111                            | 2328                                                 |
| <b>Konimex t</b>       | 37                               | 6853                             | 1115                                                 |
| <b>Qiziltepa t</b>     | 44                               | 24357                            | 3192                                                 |
| <b>Navbahor t</b>      | 38                               | 18912                            | 2059                                                 |
| <b>Nurota t</b>        | 54                               | 14351                            | 1947                                                 |
| <b>Tomdi t</b>         | 18                               | 2024                             | 402                                                  |
| <b>Uchquduq t</b>      | 19                               | 8366                             | 829                                                  |
| <b>Xatirchi t</b>      | 93                               | 34380                            | 4539                                                 |
|                        |                                  |                                  |                                                      |

Navoiy viloyati bo'yicha 2024-2025- o'quv yilida faoliyat yuritayotgan umum ta'lim muassasalari 384ta bo'lib, ularda 194687 nafar o'quvchilar ta'lim olmoqda. Ushbu o'quvchilarga 21915 nafar pedagog xodimlar (O'rindoshlarsiz ) ta'lim berib kelmoqda. Har qanday ta'lim tizimining yuragi- o'qituvchi.

Viloyatning 2024-2025-o'quv yili boshiga nisbatan,muassasalar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Xatirchi tumanida – 93ta, Nurota tumanida -54ta va Qiziltepa tumanida -44tani tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish strategiyasi"asosida Navoiy viloyatida ta'lim

boshqaruvi tizimi qayta ko'rib chiqildi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida axborot texnologiyalarning o'rnini beqiyos. O'quvchilarga qulaylik yaratish sifatida onlayn darslar, virtual laboratoriyalar, hamda elektron kutubxonalar joriy qilingan.

### **Navoiy viloyatida ta'lim islohotlarining asosiy yo'nalishlari:**

- **Zamonaviy umum ta'lim maktablarini yaratish.**

I. Navoiy viloyatini "namunali hudud"ga aylantirilishi rejalashtirilgan. Ta'lim Vaziri Hilola Umarova Navoiyda bo'lib, o'qituvchilar va tarbiyachilar sifatini oshirish, ta'lim mazmunini yaxshilash bo'yicha uchrashuvlar o'tkazgan.

II. Ba'zi maktablar (masalan, Navoiy shahri va tuman maktablarida) yangi o'qitish va baholash tizimi sinov tariqasida joriy etilmoqda. Bu maktablar STEAM laboratoriyalari qurish rejalashtirilgan, elektron doskalar va zamonaviy o'quv mebellari bilan ta'minlash rejalari bor.

III. Ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 60ta maktabga taxminan 7,2mlrd so'm ajratilib, ularni kompyuter bilan jihozlash rejalashtirilgan.

- **Kasb-hunar ta'limini rivojlantirish**

I. Navoiyda kasb-hunar ta'limi tizimini aktiv ravishda takomillashtirilmoqda. Masalan, hududning iqtisodiy-ijtimoiy dasturida ko'rsatilishicha, 25ta kasb-hunar ta'limini muassasalari mavjud (maktablar, kollejlari va texnikumlar)

II. Dual ta'lim shakli joriy etilmoqda- ya'ni o'quvchilar soni sanoat korxonalari bilan hamkorlikda kasb o'rganadi.

III. Shuningdek, davlat va xususiy sektor hamkorligida kasb-hunar o'quvchilarining malakasini oshirish, metodik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ishlanmalari bor.

IV. Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda kasb-hunar ta'limini rivojlantirish loyihasining 3-bosqichi rivojlantirilgan.

- **Oliy ta'limda yangilanishlar**

I. Prezident Farmoni bilan Navoiy Davlat Pedagogika instituti bazasida Navoiy Davlat Universiteti tashkil etildi.

II. Universitet yangi o'quv dasturlarini joriy qiladi: IT, aniq va tabiiy fanlar, agronomiya, ekologiya, biznes va logistika kabi yo'nalishlar rejalashtirilgan.

III. Talabalar va o'qituvchilar uchun Xalqaro hamkorlik va qo'sh diplom dasturlari yo'lga qo'yiladi.

- **Maktabgacha ta'limda muammolar va e'tibor.**

I. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ba'zilar sifat jihatdan muammolarga duch kelgan. Masalan, bir nechta arxitektura va qurilishda sifatsiz ishlangan binolar borligi aniqlangan va qurilish ishlari to'xtatilgan

II. Shuningdek, akademik tadqiqotlar, maktabgacha ta'limda normativ va huquqiy hujjatlar asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

### **Navoiy viloyatini ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha takliflar:**

- Umumta'lim maktablari bo'yicha takliflar  
O'qituvchilar malakasini kuchaytirish  
Har bir tumanda "O'qituvchi innovatsiya markazi" ochish.  
Ilg'or o'qituvchilarni yiliga 1 2 marta xorijiy tajriba almashish dasturlariga yuborish (Turkiya, Koreya)

STEAM robototexnika dasturlash, fizika laboratoriya ) bo'yicha maxsus trenerlar tayyorlash.

- Yoshlar bandligini oshirish  
11-sinf o'quvchilariga bepul "kasb top" testini joriy etish- qaysi kasb mos ekanligini aniqlab berish.

Texnikumlarda IT yo'nalishlarini ko'paytirish : Web dasturlash, mobil ilovalar, grafik dizayn.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Navoiy viloyatining statistik axborotnomasi Navoiy-2025
2. O'zbekiston Respublikasi "Talim to'g'risida"gi Qonuni.-Toshkent,2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmoni-"2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida".-Toshkent, 2023.
4. Navoiy viloyati hokimligi. "2021-2024-yillarda ta'lim sohasini rivojlantirish dasturi".-Navoiy,2024.